

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 7 Jild 4  
**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduxamidov Islombek</i> O‘ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI .....	10-18
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i> ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ .....	19-24
<i>Индиаминова Шоира Амриддиновна</i> РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ .....	25-29
<i>Mirzakhamdama Dildora Zafarovna</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA FARG‘ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH .....	30-35
<i>Ismoilova Parvina</i> TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) .....	36-41
<i>Jomurodov Lazizbek Islomovich</i> O‘ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI .....	42-46

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна</i> ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ .....	47-54
<i>Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna</i> VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO‘RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH .....	55-61
<i>Mamadaliyev Ulug‘bek</i> JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI .....	62-69
<i>Jalilov Arslon Xoshimovich</i> TEMIR YO‘L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH .....	70-75
<i>Kamchibekov Farxod Olimjonovich</i> O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI .....	76-82

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Djurayev Lukmon Narzullaevich</i> ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI .....	83-87
---	-------

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i> MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI .....	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i> ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ .....	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i> O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOYIY- FALSAFIY MASALALARI .....	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i> O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI .....	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i> SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI .....	117-122
<i>Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich</i> VATANPARVARLIKNI IJTIMOYIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i> ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK .....	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI .....	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i> LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA .....	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i> O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i> O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI .....	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i> RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI .....	155-159
<i>Облоқулова Шахло Асрор қизи</i> ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ .....	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI .....	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i> “MARDLIK” VA “QO'RQOQLIK” KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i> NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI .....	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i> АРАБ ДУНЁСИДА “МАСАЛ” ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ .....	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромова Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Ақром Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmatatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQUISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> FUQAROLIK-HUQUQIY ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O’RNI .....	283-289
<i>Калимбетов Ерназар</i> ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
<i>Ibrohimov Azimjon Abdumotamin o'g'li</i> KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAHSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
<i>Ходжаева Ширин</i> ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
<i>Маматкулов Камолiddин Галабаевич</i> ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Nazarova Ra'no Sidiq qizi</i> HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
<i>Hamidova Laylo Kamildjonovna</i> OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich</i> MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
<i>Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi</i> GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
<i>Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li</i> INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
<i>Jalilov Umidjon Jahongirovich</i> OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
<i>Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi</i> OLIV TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....	376-381

**Received:** 30 June 2024  
**Accepted:** 5 July 2024  
**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

## **STUDIES ON UZBEK ANECDOTES, THEIR CLASSIFICATION AND RESEARCH CONDUCTED ON THE WAY OF COLLECTION**

**Umaraliev Dildora Takhirjanovna**

Ph.D. student of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
*E-mail:* khusanbayeva@bk.ru

**Abstract.** The article gives a general definition of the term "latifa", considers its genre specificity, and touches on the feature of equivalence with "anecdote" in Russian and English. Also, the scientists who researched anecdotes and the attempts and results of publishing Uzbek anecdotes in the form of a collection are analysed.

**Keywords:** latifa, anecdote, research, collection, genre, Nasriddin Efandi, analysis.

## **O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR**

**Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 2-kurs PhD talaba

**Annotatsiya.** Maqolada "latifa" atamasiga umumiy ta'rif beriladi, uning janr jihatdan o'ziga xosligi ko'rib chiqiladi va rus va ingliz tilidagi "anekdot" bilan ekvivalentlik xususiyatiga biroz to'xtalinadi. Shuningdek, latifa ustida tadqiqot olib borgan olimlar, hamda o'zbek latifalarini to'plam holida nashr etish yo'lida olib borilgan urinishlar va natijalar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** latifa, anekdot, tadqiqot, to'plam, janr, Nasriddin Afandi, tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N22>

**Kirish.** Gap folklorning kulgu qo'zg'atuvchi janrlari haqida ketar ekan, latifa janri ham askiya, hajviya, satira, lof kabi janrlar qatorida o'zbek xalqi orasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Folklorning latifa janri haqida haqida folklorshunos olimlarimiz quyidagi fikrlarini bildiradilar, xususan, M.Jo'rayev latifani doston, ertak, afsona, rivoyat, naql kabi epic janriga [1; B. 103] mansub, arabcha "lutf" so'zidan olingan bo'lib nozik fikrlash, yaxshilik qilmoq, muruvvat ko'rsatmoq, sharaflamoq [2; B. 215] kabi ma'nolarni bildiradi.

"Latifa bayon qilishning kichik hikoya formalaridan..." "Latifalarning hushchaqchaq, optimizm to'la mazmuniga muvofiq ularning ixcham, xalqchil formasi ham mavjud" [3; B. 18],- deb R.Muqimov latifalarga ta'rif beradi. Sh.Razzaqov esa latifalarni: "kichik, ixcham shaklda chuqur ma'no ifodalaydigan epic janrdir. Epik turning bu janri o'zining tuzilishi, xarakterli xususiyatlari bilan hajviy hikoyalar, masallar, qiziq ertaklardan tamoman farq qiladi" [12; B. 454],- deb yozadi. Latifalar bo'yicha juda qimmatli tadqiqotlar olib borgan F.Yo'ldosheva ham: "Latifa janrining o'ziga xos xususiyatlari qahramondan ustalik va mohirlikni, tafakkurning o'tkirliigi va chuqur idrokni, uddaburonlik bilan ish tutishni talab qiladi,"- deb o'z fikrlarini e'tirof etsa, O.Sobirov: "Latifalar ...xalq og'zaki prozasining voqeaband, hajman kichik,

yumoristik xarakterdagi xalq hajviyoti janrlaridan hisoblanadi” [4; B. 178] -deb latifalarga qarashlarini bildiradilar.

Latifa o‘zining janrxususiyatidan kelib chiqib, ingliz va rus tillariga “anecdote” va “анекдот” tarzida tarjima qilinadi va ingliz va rus tillaridagi shu atamalar bilan ataluvchi janrga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqib, Oxford English Dictionary ga murojaat qiladigan bo‘lsak, latifa “Bir voqea yoki bir alohida hodisani o‘ziga xos qiziqarli yo hayratlanarli tarzda aytib beriladigan hikoyadir.” [5] “Qadr qimmatini kishi xarakterini yoritish va ma’naviy ahamiyatga asoslangan anchagina sokin anekdotlar ham mavjud” [6] “Anekdotlarda yana ko‘pchiligi hozirda faoliyat yuritayotgan mash‘hur kishilar hayotini tasvirlab berdigan mustaqil, hikoya sifatida beriladi” [7; B. 143].

Entsiklopediya yoki Fanlar, san‘at va hunarmandchilikning izohli lug‘atida quyidagicha izohlangan: „Latifalar qadimgi va yangi tarixga oid so‘z bo‘lib, yunonlar birinchi marta ommaga ma‘lum bo‘lgan narsalarni shunday atashgan. . . . Bu so‘z adabiyotda monarxlarning idoralarida va sudlarida sodir bo‘lgan ishlar haqidagi maxfiy hikoyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Ammo o‘zini haqiqat deb da‘vo qiladigan, lekin ko‘p hollarda noto‘g‘ri yoki hech bo‘lmaganda shubhali bo‘lgan bu sirli hikoyalardan tashqari, tanqidchilar qaysi janrda bo‘lishidan qat‘i nazar, hali nashr etilmagan barcha yozuvlarni latifalar deb ataydilar“ [8; B. 452-453].

Uolter latifalarga quyidagi ta‘rifni bergan: "... bu tarixning mo‘l hosildan keyin boshloqchalar qoldiqlari terib olinadigan tor chiziq; bular uzoq vaqtdan beri yashirin bo‘lgan kichik tafsilotlar, shuning uchun „hazillar“ nomi; ular mashhur qahramonlarga tegsa, ommani qiziqtiradi" [9; B.110].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Latifa o‘zining janr xususiyatidan kelib chiqib, rus va ingliz tillariga “анекдот” va “anecdote” tarzida tarjima qilinadi, zero bu haqida B.Suvonqulov o‘zining nomzodlik ishida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Latifa janri xususida qalam tebratgan olimlarimiz uni “G‘arb va rus adabiyotidagi “anekdot”ga teng keladi”[3; B. 18], deyishadi. Bu fikrga biz qarshi emasmiz. Haqiqatdan ham anekdot bilan latifa bir-birining adekvatidek bo‘lib qoladi. Lekin ularning syujet va kompozitsiyasida, qisman bo‘lsa-sa, farq bor. Mavzu jihatdan olib qaraganda ham ular rang-barangdir. Kulgu chiqarish uchun ba‘zi anekdotlarda ishlatiladigan yalang‘och so‘z o‘yinlarini latofat bilan yo‘g‘rilgan latifalardagi nozik, ko‘p ma‘noli so‘z o‘yinlari bilan tenglashtirib bo‘lmaydi, albatta.” [12; B. 55] Bu yerda shuni ta‘kidlashni joiz topamizki, bunga sabablardan biri qilib, har bir xalqning o‘ziga xos dunyo qarashi, mentaliteti va madaniyatini ko‘rsatishimiz mumkin.

A. Peltser "anekdot"ni vujudga kelishi borasida bahs yuritib, anekdotni mustaqil janr hisoblaydi. Xalq anekdotlarining kelib chiqishida to‘rt asosiy manbani ko‘rsatadi: ertak, masal, maqol va hayotiy tasodif va hodisalar [10; B. 61].

U.Dalgatning aytishicha, A. Potebnya "Ijodiyot nazariyasi ma'ruzalaridan" nomli asarida xalq masallari bilan anekdotlarni chog‘ishtirib o‘rganib, kinoyasiz, umumiy tasavvursiz masal bo‘lmaganidek, ko‘chma ma'noli anekdot ham qochiriqsiz, kesatiqsiz anekdot bo‘lmas edi degan xulosaga keladi. Uning fikricha, xalq masallari "noaniq eganing kesimi" vazifasini bajarganda anekdotga aylanadi. [10; B. 61]

O‘zbek latifalarini to‘plashga bo‘lgan dastlabki urinishlar 10-11 asrlarda qilingan bo‘lsa, keyinchalik bu harakatlar ko‘pgina o‘zbek va xorijiy olimlari tomonidan o‘rganilgan. T.Peterson va Sh.Idris shular jumlasidan.

**Muhokama.** O‘zbek latifasini o‘rganish Yo‘ldosheva F., Shamsiyeva B., Yo‘ldoshev U., Yusupova H., Abdurahmonov Sh. kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ingliz tili bilan taqqoslangan holda tadqiq qilinadi. Ularda o‘zbek latifasining ingliz tili bilan taqqoslangan holda stilistil, lingvomadaniy kabi o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Suvonqulov B.ning “O‘zbek latifalarining janr xususiyatlari va badiiyati” nomli nomzodlik dissertatsiyasi o‘zbek latifasi, ularning ta’rifi, tasnifi, unga bo‘lgan turli qarashlar, janr jihatdan tuzilishi va xususiyatlari, o‘zbek latifalarining to‘plash bo‘yicha olib borilgan salmoqli ishlarni singari ko‘plab savollarga javob bo‘la oladi.

**Natijalar.** Xususan, o‘zbek folklori latifa janri namunalarini dastlabki to‘plami Sharif Rizoga tegishli deb hisoblanadi. U Nasriddin Afandi haqidagi latifalarni tadqiq qilishga har tomonlama urinib, 1938 yilda to‘plam shaklida nashr etishga tayyorlagan. A.Alimovning qayd etishicha [14; B. 10], Sharif Rizo to‘plamga “Nasriddin Afandi-jahon adabiyotining so‘nmas obrazi” nomi bilan 25-betlik so‘z boshi ham yozadi. 1941-yilda esa, o‘zi jamlagan 800 ga yaqin latifalarni 490 tasini 6 ta kitob qilib nashrdan chiqaradi. Shulardan, 76 tasi birinchi kitobga, 64 tasi ikkinchi kitobga, 68 tasi uchinchi kitobga, 95 tasi to‘rtinchi kitobga va nihoyat 101 va 86 ta latifalar bilan beshinchi va oltinchi to‘plamlarni to‘ldiradi.

1959-yilda A.Qahhor 54 ta latifani “Afandi latifalari” nomi ostida nashrga tayyorlaydi. Yana xuddi shu yili Odil Rahimiy rus folklorshunosi M.Sheverdin bilan birgalikda birinchi bor o‘zbek latifalari to‘plamini “Необычайные приключения Насретдина Афанди” (Nasriddin Afandining g‘aroyib sarguzashtlari) nomi bilan rus tilida nashrga chiqaradilar. To‘plam o‘z ichiga 447 ta latifani qamrab oladi.

S.Abdulla va A.Rahmat 1960-yilda “Nasriddin Afandi latifalari” nomli to‘plam tayyorlaydilar. To‘plamda 508 ta latifa mavjud bo‘lib, to‘plamning o‘ziga xosligi shundaki, latifalar nomlanib chiqiladi. To‘plam Rustam Komilovning “Nasriddin Afandi” deb ataladigan so‘z boshi bilan boshlanadi: “Nasriddin Afandi deganda ham quvnoq, ham hozirjavob, ham eng qiyin muammolarni bir daqiqada hal qilib tashlaydigan donishmand, ham hayotdagi eng oddiy hodisa oldida hayratga tushib soqolini tutamlab hayolga cho‘mib ketadigan soddadil odam ko‘z oldingizga keladi. Bu odamni butun Sharq taniydi va uni o‘ziga yaqin tutadi.”[11; B. 3]

Vahob Ro‘zimatov 1961- yilda “Yengamiz xurofotni, bid‘atni” nomi bilan ikki bo‘limdan iborat to‘plam nashr qiladi. To‘plamning ikkinchi bo‘limida ertak, xalq maqollari, ashulalar bilan birgalikda Afandi latifalari qismi ham mavjud bo‘lib unda 36 ta latifa o‘rin oladi.

M.I.Sheverdin va Odil Rahimiylar 1965-yilda yana birgalikda o‘zida 623 ta latifalarni jam qilgan “Похождение Ходжи Насреддина. Изумительные и правдивейшие истории из жизни прославленного мудреца Насреддина Афанди” (“Хо‘ja Nasriddinning sarguzashtlari. Mash‘hur donishmand Nasriddin Afandi hayotida bo‘lgan ajoyib va haqqoniy voqealar”) to‘plamini nashr etadilar. Latifalar rus tilida tarjimasi bilan beriladi va mavzusiga ko‘ra 17 ta kitob shaklida beriladi. Har bir kitobda latifalar miqdori quyidagi tarzda taqsimlanadi:

1. 24; 2. 32; 3. 41; 4. 48; 5. 17; 6. 34; 7. 10; 8. 40; 9. 41; 10. 35; 11. 23; 12. 12; 13. 66; 14. 47; 15. 48; 16. 60; 17. 42;

Latifalarni to‘plash bo‘yicha eng katta ish H.Razzoqov, Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarga tegishli bo‘lib, “O‘zbek xalq ijodi” turkumida “Latifalar” nomi bilan chop etilgan. 894 ta latifalarni qamrab oladi. Mavzularga ko‘ra 4 ta qismga ajratilgan. 1965, 1968, 1970 yillarda 3 bora nashr etiladi.

Afandi turkumiga oid ishlangan soʻnggi va eng kata ishlardan 1990 yilda B.Sarimsoqov va F.Yoʻldoshev tomonidan toʻplanib nashrga tayyorlangan "Afandi latifalari" toʻplamidir. Toʻplamga "Afandi latifalari" (1941, 1959), "Nasriddin Afandi latifalari" (1960), "Latifalar" (1965, 1970), "Afandining ahdi" (1966) toʻplamlaridan latifalar tanlab olingan. Bundan tashqari, bu toʻplamga Oʻz FA A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti folklor sektori arxivida saqlanayotgan va "Mushtum" jurnalida bosilgan eng original latifalar kiritilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, latifa janri oʻzbek folklorining doston, topishmoq, ertak kabi qadimiy janrlaridan biri hisoblanib, oʻzining odatda qisqa xajmiga aniq, loʻnda hikoyani kulgu orqali ifodalab beradi.

Oʻzbek latifalariga, umuman olganda latifalarga boshqacha qilib aytadigan boʻlsak, anekdotlarga koʻplab taʼrif berilgan, tasnif qilingan, biroq oʻzbek latifalari oʻzining nozikligi, nozik qochiriqlari bilan boshqa millat anekdotlaridan farq qiladi. Bunda har bir xalqning yashahsh sharoiti, dunyoqarashi, til qurilishi kabi faktorlar ham borligini unutmaslik lozim topiladi.

X-XI-asrlarda xalqimizning boshqa folklor namunalari qatori Mahmud Qoshgʻariyning asarida oʻz oʻrnini topa boshlagan latifalar, oʻtgan asrda yana oʻziga qiziqishni orttirib bir qancha olim, yozuvch folklorshunos olimlar tomonidan toʻplana boshlandi, keyinchalik va yaqin yillarda turli tillar bilan xususan ingliz tili bilan qiyosiy tahlillari oʻrganilib kelinmoqda. Bu tadqiqotlarda albatta oʻtgan asrda toʻplam shaklini ola boshlangan latifalar toʻplamlari oʻz ahamiyatini kasb qilmoqda.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. M.Joʻrayev, J.Eshonqulov, Folklorshunoslikka kirish, Toshkent, «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017. B.180.
2. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Joʻrayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov, Oʻzbek folklori, Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat Oʻzbek Tili va Adabiyoti Universitetu, 2020. B. 237.
3. Muqimov R. Oʻzbek xalq latifalarida satira va yumor//oʻzbek satirasining ayrim masalalari.-Samarqand: SamDU, 1973.-B.-18.
4. Sobirov O. Latifa va loflar//oʻzbek xalq ogʻzaki poetic ijodi.-T.: oʻqituvchi, 1980.-B.-178.
5. "Anecdote, n.," OED Online, accessed July 28, 2015, <http://www.oed.com>.
6. Fadiman, Book of Anecdotes, xvi.
7. Gossman, "Anecdote and History," 143.
8. Encyclopédie, ou Dictionnaire raisonné, Paris, 1751 — 452—453 bet.
9. Mervaud M. „Les Anecdotes sur le czar Pierre le Grand de Voltaire: genèse, sources, forme littéraire“, Studies on Voltaire and the eighteenth century, 1996 — 110 bet.
10. Пельтцер А.П. Происхождение анекдотов в русской народной словесности //Сб. тр. Харьк. ист. филол. общества. Харьков: Губернское Правление, 1899. -Т.2. - С.61.
11. Насриддин Афанди латифалари. -Т.: Ўздавадабийнашр, 1960. Б.-3.
12. Сувонкулов Б.М. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол.фан.ном....дисс.-Тошкент, 2007.-Б.-55.
13. Razzoqov Sh. Oʻzbek xalq ijodida satira va yumor: Filol.fanlari d-ri ... dis.-Andijon: Andijon ped.in-ti, B.454.
14. Алимов А.Б. Жизненный материал и художественная правда (на основе жизни и творчества Шарифа Ризо): Автореф. дис. ... канд.филол.наук.-Т.: Ин-т яз. и литер. АН УзССР, 1986. С.-10.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).